O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
_________ [illegible]
"___" ______ 2024 yil

Ro'yxatga olindi: № 2024/MSVAX1105
2024 yil "09" 09

# "MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI" FANI O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000-Ta'lim |
| **Ta'lim sohasi:** | 110000-Ta'lim |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | Barcha ta'lim yo'nalishlari |

**Navoiy– 2024**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| MSVAX1105<br>MSVAX11205<br>MAM1204<br>MSVAX1205 | 2024-2025 | 1/2 | 4/5 | |
| **Fan/modul turi**<br>majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Mediasavodxonlik va axborot madaniyati | 60 | 60 / 90 | 120 /150 |

2. **I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi** – bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo'lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, ma'lumot evolyutsiyasi tarixini o'rgatish. Media savodxonlik, axborot, axborot madaniyati va etikasi, ularning asosiy elementlari, media va axborot savodxonligini shakllantirishning texnik, ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy ilmiy asoslari, hamda bugungi kunda insonlar media savodxonligini rivojlantirish zaruriyatini talabalarga tushuntirish. Jamiyatni demokratik taraqqiyotga erishishida, insonlarning ijtimoy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalardagi faoliyatlarini faollashuvida, shuningdek tanqidiy fikrlashlarida media va axborotning, media savodxonlikning ahamiyatini yoritib berish.

**Fanning asosiy vazifasi:**

- talabalarda global axborot makonida mavjud axborotlarni tushunish, baholash, tahlil qilish salohiyatini rivojlantirish, hamda ularda axborot etikasi va tanqidiy tafakkurni shakllantirish;
- ommaviy axborot vositalari va media makonga xos: «raqamli», «kompyuter», «vizual», «texnologik», «kommunikatsion» va, albatta, «media» va «axborot» kabi tushunchalarni talaba yoshlarga mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan holda foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- talabalarda media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish;
- axborotni tahlil qilish savodxonligini oshirish;
- talabalarda axborot xuruji, tahdid va boshqa turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma'naviy-madaniy immunitetni shakllantirish;
- kelgusida media savodxonlik va axborot madaniyatini pedagogik faoliyatida qo'llashga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;
- media savodxonlik va axborot madaniyati sohasida yetakchi mamlakatlarning ilg'or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim,

ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

## II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
## II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### I-Modul: "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanining nazariy asoslari. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi. Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati

#### 1-mavzu: "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanining obyekti, predmeti, kategoriyalari, maqsad va vazifalari

"Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanining mavzu doirasi, predmeti, maqsadi va vazifalari. Media, axborot savodxonligi va media savodxonlik tushunchalarining mazmun va mohiyati. Media savodxonlik va axborot madaniyatining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. " "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanining asosiy kategoriyalari: "media", "axborot", "MAS", "media savodxonlik", "axborot savodxonligi", "axborot madaniyati", "kommunikatsiya", "informatsiya", "infoetika", "media kontent", "OAV", "matbuot", "jurnalistika", "axborot maydoni", "axborotlashgan jamiyat", "kibernetika", axborot turlari: siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, diniy, rasmiy, norasmiy, ilmiy va h.k., "global axborot maydoni", "axborot xavfsizligi", "axborot xuruji", "axborot inqilobi", "axborot inqirozi", "Internet va ijtimoiy tarmoqlar", "axborot almashinuvi", "Virtual olam", "globallashuv", "axborot resursi", "axborot ehtiyoji", "axborot texnologiyalari", "kommunikatsion texnik vositalar", "axborot xizmatlari" va h.k. tushunchalar. Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

#### 2-mavzu: Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi

Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi evolyutsiyasi va o'ziga xos dialektikasi. Media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish zaruriyati. Muloqot va ma'lumot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi. Muloqot va ma'lumotning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati va ma'naviy ehtiyojga aylanishi.

Milliy matbuot va jurnalistikaning rivojlanish tarixi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy matbuot rivojida ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarining matbuot sohasidagi faoliyatlarini tutgan o'rni. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ vosita sifatida va foydalanish usullari. Xat (maktub) ilk axborot almashuv shakli. Pochta, gazeta, telegraf, jurnal va radio axborot



manbai sifatida. Televedeniye – davr taqozosi sifatida.

#### 3-mavzu: Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati. "Axborotlashgan jamiyat"ning yuzaga kelishi va uning xususiyatlari

Axborot tushunchasining mazmun va mohiyati. Axborot turlari: ommaviy, siyosiy, ilmiy, ilmiy-texnik, iqtisodiy, agrobiologik, huquqiy, diniy, rasmiy, nomsmiy va h.k. Axborot resurslari. Pochta, gazeta, telegraf, jurnal va radio axborot manbai sifatida. Axborotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqot va ma'lumot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi. Muloqot va ma'lumotning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati va ma'naviy ehtiyojga aylanishi. Xat (maktub) ilk axborot almashuv shakli. Axborot xizmatlari. Axborot olish va foydalanish metodlari. Axborotning jamiyat rivojidagi o'rni.

Axborot madaniyati tushunchasi. Axboriy madaniyatlilik bugungi kunning zaruriyati sifatida. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun – mohiyati. Axborot jamiyati konseptsiyasi. Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotida axboriy jamiyat rivojlanish bosqichlari. Zamonaviy axborot jamiyati xususiyatlari. Axborot jamiyatining xarakterli tomonlari. Jamiyatni axborotlashtirish maqsadi. Jamiyatni axborotlashtirishning ijobiy va salbiy jihatlari

#### 4-mavzu: Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotning ahamiyati. Media va axborot savodxonligini rivojlantirish masalalari

Jamiyat va axborot. Axborotning ijtimoiy va madaniy turmush, jamiyat siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan uzviyligi. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ vosita sifatida va foydalanish usullari. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot – inson hayotining ajralmas qismi. San'at, sport va ma'naviy hayot. Axborotning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatinig shakllanish tendensiyalari. Medialarning qadriyatlariga tayanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Axborotning shaxs his tuyg'ulariga ta'sir muammolari. Axborotning ijtimoiy jamiya qatlamlariga ta'siri.

Televedeniye – davr taqozosi sifatida. Ommaviy axborot vositalarida axborot ma'lumot (matn)lar bilan ishlash va uning ommaga ta'sirini belgilash. Axborotda adolat va xolislik prinsiplariga amal qilishning muhimligi.

### II-modul: Media maydon: tuzilishi, jahon media va axborot makonida raqobat muhiti. Axborot manipulyatsiyasi

#### 5-mavzu: Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti. Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media makondagi o'rni

Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televediniye va internet jurnalistikasida o'zaro raqobat muhiti. Aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji.

Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muhiti. Matbuotda so'z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy ishlarda raqobat. Bloger va vaynerda kasbiy etiket axborot daromad manbaiga aylanishi. Axborotning inson ongiga tasiri muammolari. Kasb etikasi.

Bosma nashr: "The Times", "New Times", "Bloomberg", "Sabah". Radio: "Эхо Москвы", "TRT" va "Amerika ovozi" teleradiokompaniyalarining axborotlari tahlili. T.Livettning "Garverd biznes revyu" maqolasi. Kenichi Omasning "Chegarasiz dunyo" asarining globallashuvidagi ahamiyati. "Olomoncha madaniyat" oqibatlari. Hozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining inson omiliga tasiri muammolari. Jahon axborot tarmog'ida fitna va ma'naviy xurujlar va ularnig oqibatlari. Xorijiy mamlakatlarning media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish borasidagi pozitsiyalarining, hamda media ta'lim va axborot savodxonligi xususidagi qarashlarining qiyosiy tahlili.

### 6-mavzu: Media maydon tuzilishi va ta'siri. Virtual olam va manipulyatsiya

Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Media axborot yaratish va uning tahlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholashning ahamiyati. Media madaniyat. Media ta'lim. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Internet tarmoqlarining vujudga kelishi va maqsadi: , "Odnaklassniki", "Telegram", "Facebook", "Instagram", "Whatsapp", "Tik Tok", "Youtube", "go-gulf-com", "Linkedn". Virtual olam va manipulyatsiya. Axborot - manipulyatsiya vositasi sifatida. Ommaviy manipulyatsiya ta'siridan himoyalanishda axborot va media savodxonligiga ega bo'lishning ahamiyati.

## III-modul: Ijtimoiy tarmoqlar: tasnifi, jamiyat hayotiga ta'sir muammolari. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari: psixologik, mafkuraviy, virtual o'yinlar, diniy va madaniy tahdidlarning namoyon bo'lishi

### 7-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar

Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. An'anaviy OAV o'rnini ijtimoiy tarmoqlar egallashi. Ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligi va yoshlarni o'ziga jalb etishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandasi. Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi. "Odnaklassniki", "Telegram", "Facebook", "Instagram", "Whatsapp", "Tik Tok", "Youtube", "LinkedIn". Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar. Kommunikativ xavf, texnik xavf, kontent xavfi va zararli dasturlardan himoyalanishda media va axborot savodxonligiga ega bo'lish zaruriyati. Ijtimoiy tarmoqlardagi xavfli va axloqqa zid mazmunga ega bo'lgan kontentlarning inson ongi va dunyoqarashini egallashga qaratilganligi. Media kontentlarni to'g'ri baholash va



tanlash lozimligi.

### 8-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari

Ijtimoiy tarmoqlar: shakllanish va ommalashish tarixi. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta'sir muammolari. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta'siri. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi prinsipini aniqlash, tizimli tadqiq va tahlil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funksional bog'liqligi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ijobiy va salbiy ta'sirlarining namoyon bo'lishi: bu borada o'tkazilgan so'rovnomalar va olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tahlili. Insonlarning tobora ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolishi, o'zaro begonalashishning yuzaga kelishi, jamiyatdagi real voqelikdan uzilib qolishining salbiy oqibatlari. Jamiyat a'zolarining keng miqyosda turli mavzularda axborot almashinuvida ijtimoiy tarmoqlarning media maydon sifatidagi o'rni.

### 9-mavzu: Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, mafkuraviy, diniy va madaniy tahdidlar

Axborotning shaxs va jamiyatga yo'naltirilganligi. Etnik, milliy va mintaqaviy muammolarga yo'naltirilgan psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. Milliy nizo turlari va tahdidlar. Axborot urushi va axborot makonidagi raqobatning namoyon bo'lishi, axborot tizimida (feyk) xabarlardan va axboriy manipulyatsiyadan foydalanilayotganligi va uning salbiy jihatlari. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatining takomili. Ko'pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag'rikenglik g'oyalarining ahamiyati, jamiyat barqarorligiga tajovuz va tahdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining regulyativ funksiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, makro darajalar. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizmi va texnologiyalari. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya. Mafkuraviy-ma'naviy immunitetni shakllantirish. Millat tarbiyasi va ma'rifatini yuksaltirishning dolzarbligi va imkoniyatlari

### 10-mavzu: Kompyuter o'yinlarining yuzaga kelishi. Shaxsdagi internet va kompyuter o'yinlariga tobelikning ijtimoiy psixologik xususiyatlari

Internet va kompyuter o'yinlarining paydo bo'lishi. Kompyuterga tobelikni to'rt bosqichi, moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta'siri, inson hayotining ajralmas bo'lagi sifatida. Internet va kompyuter o'yinlarining paydo bo'lishi. Virtual tanishuvlar. Virtual o'yinlarning yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga salbiy ta'siri. Yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari: "Kazino", "sport o'yinlari", "karta o'yini". Kompyuter o'yini qanchalik zararsiz ekanligini qanday tushunish mumkin?

Qimorga qaramlik nima va u bilan qanday kurashish mumkin? Nima qilish kerak? Kompyuter o'yinlariga qaramlikni qanday oldini olish mumkin? Najotni qayerdan izlash kerak? Davosi bormi? Mazkur savollarni yuzaga keltirgan muammolar va ularning yechimi.

**11-mavzu: Virtual kompyuter o'yinlarining yoshlar ongiga ta'siri, ruhiy va jismoniy xatarlari**

Virtual olamda o'zlikni namoyon qilish – "qahramon"lik. Zo'ravonlik, fahsh va shafqatsizlikka undovchi o'yinlar: "Pubj", "Minecraft", "counter- streke", "EverQuest", "Manhunt", Hilmiy Xidir Soriy. Ijtimoiy tarmoqlar, virtual olamning jamiyatga va insonlararo ijtimoiy munosabatlarga ta'siri. Kompyuter o'yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Zo'ravonlik, fahsh va shafqatsizlikka undovchi o'yinlar. Kompyuter o'yinlariga qaramlik zamonaviy insoniyatning haqiqiy muammosi ekanligi. Virtual o'yinlar insonni o'ziga qaram qilishi, diqqatni tortishi va shunchaki behuda ketadigan qimmatli vaqtni olishini tahlil etish. Video o'yinlarga qaramlikni davolash mumkinmi va uni qanday qilish mumkin? **Ludomaniya** – xuddi piromaniya kabi ruhiy kasallik. **"Kibernetik ludomaniya"** tushunchasi jahon meditsina amaliyotiga rasman kiritilgan yangi kasallik nomi. **Kiberludomaniya** – kompyuter o'yinbozligi. Kompyuter o'yinlariga haddan ortiq bog'lanib qolishning asoratlari.

**III-modul: Axborot xavfsizligi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy, huquqiy, ma'naviy-metodologik asoslari. Jamoatchilik nazorati instituti faoliyatida media maydon va internet imkoniyatlari**

**12-mavzu: Axborot xavfsizligi tushunchasi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy asoslari**

Axborot xavfsizligi: asosiy tushunchalar. Tahdidlar va ularning turlari. Axborot xavfsizligi siyosati. Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Bu vositalarga qaramlik emas, balki yoshlarda to'g'ri foydalanish tushunchasini shakllantirish. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv. Inkorni inkor qonunini savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo'lishi. Internet tarmog'idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligini nazariy-metodologik asoslari. Ta'limda media savodxonlik va axborot madaniyatini qo'llash metodlari. Axborot xurujlari etnik, irqiy, milliy, mintaqaviy, diniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan kamsitishi targ'ib etuvchi manbalarga nisbatan mantiqiy psixologik hamda huquqiy yondashish.

**13-mavzu: O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy, ma'naviy-metodologik asoslari**



Axborot almashinuvining milliy – mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, ma'naviy ruhiy zo'ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari haqida. Davlat siri va qonun bilan qo'riqlanadigan sirlar. Fuqarolarning sha'ni, qadr –qimmati va obro'siga nisbatan daxl qilish. Giyohvandlik vositalari, psixotrop modda va prekursorlarni targ'ib qilish, Prezident asarlari, farmonlari hukumat qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida media savodxonligi va axborot madaniyatini himoyalashi, Xalqaro normalarda axboriy himoya BMT ning "Bola huquqlari to'g'risidagi" konvensiyasi. "Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi" kurash bo'yicha SHHT kontsepsiyasi.

**14-mavzu: Media maydonda axborot tarqatish madaniyati: kiberetika va kiberhuquq**

Axborot maydonida axloq va shaxs tushunchasi. Kiberjinoyatchilik, kiberhuquq va kiberetika. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo'lishi. Media maydonda axborot tarqatish madaniyati. Media maydonda axborot tarqatishning normativ asoslari. Vizual olamda muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta'sir muammolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari. Axborot almashinuvining madaniy-sotsial holati va ahamiyati.

**15-mavzu: Jamiyatda tanqidiy-tahliliy tafakkurni rivojlantirishda va jamoatchilik nazorati instituti faoliyatida media maydon va internet imkoniyatlari**

Jamoatchilik nazorati tushunchasi. Jamoatchilik nazorati tizimi, sub'ektlari, shakllari va turli ko'rinishlari. Vakolatli fuqarolik jamiyati institutlarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash mexanizmlari. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va uning ahamiyati. Jamiyatda tanqidiy-tahliliy tafakkurni rivojlantirishda va jamoatchilik nazorati instituti faoliyatida media maydon va internet imkoniyatlari.

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. "Media savodxonlik va axborot madaniyati" fanining obyekti, predmeti, kategoriyalari, maqsad va vazifalari
2. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi
3. Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati. "Axborotlashgan

jamiyat"ning yuzaga kelishi va uning xususiyatlari
4. Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotning ahamiyati. Media va axborot savodxonligini rivojlantirish masalalari
5. Xorijiy ommaviy axborot vositalarini media makondagi o'rni
6. Media maydon tuzilishi va ta'siri
7. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar
8. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari
9. Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, mafkuraviy, diniy va madaniy tahdidlar
10. Kompyuter o'yinlarining yuzaga kelishi. Shaxsdagi internet va kompyuter o'yinlariga tobelikning ijtimoiy psixologik xususiyatlari
11. Virtual kompyuter o'yinlarining yoshlar ongiga ta'siri, ruhiy va jismoniy xatarlari
12. Axborot xavfsizligi tushunchasi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning g'oyaviy-nazariy asoslari
13. O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy, ma'naviy-metodologik asoslari
14. Media maydonda axborot tarqatish madaniyati: kiberetika va kiberhuquq
15. Jamiyatda tanqidiy-tahliliy tafakkurni rivojlantirishda va jamoatchilik nazorati instituti faoliyatida media maydon va internet imkoniyatlari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Media ta'limning bugungi kundagi zaruriyati. Media va axborot savodxonligini rivojlantirish yo'llari (fanga oid taqdim etilgan adabiyotlarni o'rganish)
2. Fan mavzulari yuzasidan vaziyatli masalalar (kazuslar) tuzish
3. Seminar mashg'ulotlarining ixtiyoriy tanlangan mavzulari bo'yicha



taqdimot tayyorlash va mavzuni topshirish
4. Medialarning ijtimoiy mazmuni. Ijtimoiy media shakllari. Ijtimoiy medianí baholash. Ijtimoiy mediada tahdid va xavf-xatarlar
5. Media makonda axborotni taqdim etish. Axborot turlari va uning ishonchliligi
6. Media muhitda bola huquqlari. BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"
7. "Kitoblar – muhim axborot manbai sifatida" mavzusida esse yozish
8. AKT yuzasidan bilimlarni egallash zaruriyati va ahamiyati. Kommunikatsion texnik vositalar. Texnika madaniyati
9. O'zbekiston Respublikasining media va axborot tizimi. Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televediniye va internet jurnalistikasi
10. O'yinlar–ijtimoiy faoliyat sifatida. Kompyuter va virtual o'yinlarning asoratlari. Virtual tutqunlikka qarshi kurash(SWOT tahlil yoki FSMU texnologiyasi asosida mavzuni tushuntirish)
11. O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari
12. Shaxsga yo'naltirilgan axborot: psixologik, mafkuraviy, diniy va madaniy tahdidlar. O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari xususida debat tashkil etish(har bir talaba ixtiyoriy, Sillabusda keltirilgan boshqa mavzuni tanlashi mumkin)
13. Kiberterrorizm va kibertahdidlar, ularni bartaraf etish imkoniyatlari. Media muhitda axloqiy tamoyillar. Tarmoq odob axloqi(Infoetika) mavzularida anjumanga tezis tayyorlash

3.

**V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Talaba bilishi kerak:**

- Media va axborot savodxonligi, axborotlashgan jamiyatning qaror topishi:ijobiy-salbiy xususiyatlari, axborot tarqatish madaniyati, globallashuv davrida axborot tahdidlarining xavfi va ushbu tahdidlarga qarshi kurashishning usul vositalariga oid bilimlarni egallashi lozim. Jamiyatni demokratik taraqqiyotga erishishida, insonlarning ijtimoy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalardagi faoliyatlarini faollashuvida, shuningdek tanqidiy fikrlashlarida media va axborotning, media savodxonlikning ahamiyati xususida ***tasavvurga ega bo'lishi*** **(bilim);**
- media kontentni yaratish uchun kerak bo'ladigan AKT bilan ishlash ko'nikmalari, kelgusida media savodxonlik va axborot madaniyatini pedagogik faoliyatda qo'llashga oid, shuningdek demokratik jamiyatda medianing roli va funktsiyalarini, media matnlarni tahlili, mushohadaviy

| | |
|---|---|
| | tafakkurga asoslangan holda mustaqil qarorlar qabul qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi*(ko'nikma);**<br>• mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash , media vositasida o'z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o'zaro hamkorlik qilish, media kontentini uning funktsiyalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy baholash, "media" va "axborot" kabi tushunchalarni mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan holda hayotda va kasbiy faoliyatida foydalanish, axborot ehtiyojlarini aniqlash, axborotni izlash va unga egalik qilish, axborotni baholash va tizimlashtirish, axborotdan axloqiy ,qoidalarga rioya qilgan holda foydalanish, axborotni uzatish, axborotni qayta ishlash uchun AKT bilan ishlash ***malakalariga ega bo'lishi lozim*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruza;<br>• keys-stadi;<br>• individual loyihalar;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish;<br>• "BBB", "SWOT-tahlil", "Klaster", "FSMU", "INSERT" va "VENN diagrammasi" kabi grafikli organayzerlardan foydalanish, "Debat", o'yin, musobaqalar tashkil etish |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |



| | |
|---|---|
| 6. | **VIII. Asosiy adabiyotlar** |


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2023
2. N.Abduazizova.O'zbek jurnalistikasi tarixi.Monografiya.T.:"Akademiya", 2002
3. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность. 2004
4. S.Qosimov.Axborot texnologiyalari.O'quv qo'llanma.T.: "Aloqachi" 2006
5. Qozoqboyev T. Jurnalistika asoslari. T.:„Musiqa", 2007-yil,-126 b
6. Гундарин М.В. Теория и практика связей с общественностью: основы медиа. Учеб.пособие.-М.:Форум:инфра-м, 2007
7. Maxarov Tolkun. Axborot tizimlari nazariy asoslari.O'quv qo'l.Toshkent. 2012
8. Mamatova Ya, Sulaymonova S. O'zbekistonda mediata'lim istiqbollari. T.: 2013
9. F.Mo'minov, T.Eshbekov va boshqa. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. T.: "Fan va texnologiya", 2013.- 208 bet
10. Кучукбаев Ф.М, Абдуазимова Д.Ф. Джураев Р.Х, Диванова М. Руководство по обеспечению информационной безопасности детей в условиях глобализации телекоммуникационных систем. 2014
11. Денис Дубовер. Медиаграмотность. ч.1.Как жить в медиамире.Ростов-на-Дону.2015г.-72 стр
12. Федоров А.В Медиаобразование: история и теория. М.: МОО "Информация для всех», 2015. 450 с
13. Ya. Mamatova, S.Sulaymonova. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma., -T.: "Extremum-press", 2015.- 94 b
14. Ya. Mamatova, S.Sulaymonova O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma., -T.: "Extremum-press", 2015.- 94 b
15. S. Tyominen, Sirkku Kotilainen., Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma.-T.: Extremum-press, 2017-142 b
16. B.Namozov, M.Fayziyeva va Sh.Sharafiddinov. Media va axborot savodxonligi. O'quv qo'llanma.-T.: "Baqtria press", 2018. -139 bet
17. T.Eshbekov. Axborot xizmatlari.-T.: "Fan va texnologiya", 2019.224 b
18. Muratova N., Grizi E., Mirzaaxmedova Jurnalistikada media va axborot savodxonligi. Toshkent: Baqtriya press, 2019. - 112 b
19. Aleksandr Goroxovskiy. Media va axboriy savodxonlik bo'yicha muammoli/ tarbiyasi og'ir yoshlar toifasi bilan ishlash uchun. Uslubiy qo'llanma.Bishkek: 2021.-152 bet.

20. Ю.Ю. Черный, Т.А. Мурована Медийно-информационная грамотность в цифровом мире: как научить учителей Сборник статей. 2021

21. Sh.Askarova. Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 2022

22. Fedorov A Media manipulation and Media literacy education. Moscow 2022

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik..T.: "O'zbekiston", 2015
2. A. Abdullayev muharrirligida. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. O'quv qo'llanma. 2017
3. N.Qosimova. Onlayn jurnalistika. Darslik. Toshkent. 2019
4. I. Ergashyev, A. Xudaynazarov. Globallashuv va g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar O'quv qo'llanma. –T.: "Universitet", 2021. 460 bet

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Farmoni**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 2022 yil 22-avgustdagi Qarori, PQ-357-son

**Axborot manbalari**

1. http://www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
2. http://www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi
3. Prezident.uz- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
4. www.press-service.uz.-Prezident matbuot xizmati
5. http://www.edu.uz- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti
6. www.uza.uz- O'zbekiston Milliy axborot agentligi(O'zA)
7. www.natlib.uz- Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi



8. www.webofscience.com-Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
9. www.scopus.com-Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
10. www.elibrary.ru-Rossiya ilmiy maqolalar indeksi
11. www.pedagog.uz
12. http:// www. ZiyoNET.uz- O'zbekiston Respublikasi Milliy ta'lim tarmog'i
13. http:// www.pilosophy. ru
14. http:// www.falsafa. de.uz
15. www.medineducation.ru
16. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali –www rzult academy freenet uz.
17. "Ma'rifat" jurnali - www ma'rifat – inform.
18. "Turkiston" gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
19. "Xalq so'zi" gazetasi –www info XS. Uz.

| | |
|---|---|
| 7. | **Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil "06" 09 dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul va dastur muallifi:** "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi<br>_____ (imzo) **G.B.Nunnanova** (ism, familiyasi) |
| 9. | **Taqrizchilar:** Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, H.Abuyev<br>Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, M.Raxmatov |

**Kafedra mudiri** _____ (imzo) **dots., H.O.Abuyev** (ism, familiyasi)

№ 2024/1.03